

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 24-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABROREK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24





SANOAT SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti v.b., PhD

E-mail: nargizak@urdu.uz

<https://orcid.org/0009-0007-2024-1521>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zaruriyati, mazmuni, mavjud imkoniyatlari va ularni amalga oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilgan turli tadqiqotlar yo'nalishlari, ushbu tadqiqotlar asosida sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bayon etilgan va bu yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, soha, tadbirkorlik, faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, tadqiqot, ishbilarmonlik, texnologiya, iqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются необходимость, содержание, существующие возможности и проблемы их реализации в развитии предпринимательской деятельности в промышленном секторе. Также описываются различные направления исследований, проводимых в области развития предпринимательской деятельности в промышленном секторе, намечаются основные направления развития предпринимательской деятельности в промышленном секторе на основе этих исследований, а также представлены выводы и предложения по данному вопросу.

Ключевые слова: промышленность, сектор, предпринимательство, деятельность, предпринимательская активность, исследования, бизнес, технологии, экономика.

Annotation. This article discusses the need, content, existing opportunities and issues of their implementation in the development of entrepreneurial activity in the industrial sector. It also describes various areas of research conducted on the development of entrepreneurial activity in the industrial sector, outlines the main directions of the development of entrepreneurial activity in the industrial sector based on these studies, and presents conclusions and proposals in this regard.

Keywords: industry, sector, entrepreneurship, activity, entrepreneurial activity, research, business, technology, economics.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Unga binoan, sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, eksport salohiyatini yuksaltirish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shunga asosan, sanoat tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes subyektlari yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash hamda sanoat sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmonida [1] sanoatni modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb





etish, eksportni kengaytirish va xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bu islohotlar sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishi va iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, ayrim tadqiqotlar yengil sanoat tarmoqlarida tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlariga bag'ishlangan. Unga ko'ra, maqolada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy, huquqiy va institutsional shart-sharoitlar hamda davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida ma'lumot berilgan [2]. Yana bir tadqiqotlarga asosan, sanoat tarmog'ida kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirish masalari tadqiq qilingan. Ya'ni, ushbu tadqiqotda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini keng joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan [3]. Yana boshqa xil tadqiqotlarda esa qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari va unda tadbirkorlikning o'rni asoslangan. Ya'ni, qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislar yetishmovchiligi va tadbirkorlikdagi mavjud muammolarning yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan [4].

Undan tashqari, yana boshqa bir tadqiqotlarda postindustrial iqtisodiy senariyni amalga oshirish orqali yirik ishlab chiqarish tadbirkorligini rag'batlantirishga dinamik va pragmatik yondashuvlar talab qilinadi. Unga asosan, mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish tadbirkorligining ahamiyati tizimlashtirilgan [5]. Yana boshqa tadqiqotlarga ko'ra, iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida biznes tuzilmalarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish xususiyati sifatida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy salomatligining aniq ko'rsatkichi bo'lgan kichik tadbirkorlikning rivojlanishi qayd qilinadi. Unga asosan, aksariyat mahalliy kichik bizneslar maksimal mustaqillikka intilib, xorijdagi kichik bizneslarning katta qismi esa subpudrat asosida ishlaydi [6]. Boshqa manbalarga asosan, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi jadal iqtisodiy o'sishga, ishlab chiqarish va xizmatlarning kengayishiga, mahalliy bozorlarning to'yinganligiga va ishsizlik va inqiroz kabi bozor xarajatlarini qoplashga imkon beradi. Ya'ni, ushbu sektor iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishini optimallashtirish uchun ulkan salohiyatni anglatib, resurslardan foydalanishning yuqori intensivligi bilan ajralib turadi [7].

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu maqolada sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, modellash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.





TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat sohasida tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. U ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi, raqobat muhitini rivojlantiradi va bozor talabiga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari ortadi hamda davlat budjetiga soliq tushumlari ko'payadi. Bu borada tadbirkorlik mahalliy resurslardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportbop mahsulotlar turini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi. Hamda sanoat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sanoat klasterlari va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan keng foydalanish hamda kadrlar malakasini oshirish va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash kabi yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur yo'nalishlar tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'ladi. Bu boradagi statistic ma'lumotlarga asosan, mamlakatimizda 2024-yil yanvar-iyun yakunlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 257,9 trln. so'mlik qo'shilgan qiymat yaratildi. Bu mamlakat yalpi qo'shilgan qiymatining 47,5 % ini tashkil etdi. Mazkur davrda kichik tadbirkorlikning sanoat tarmog'idagi ulushi 21,9 %ni tashkil etdi. Bu sanoat ishlab chiqarishida kichik biznesning muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi. 2024-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,7 % atrofida bo'lgan. Shundan 13,0 % kichik korxonalar, 6,8 % mikrofirmalar va 4,8 % yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keladi. 2024-yil yanvar-mart yakunlariga ko'ra esa kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotning yalpi qo'shilgan qiymatining 42,7 % ini yaratgan. Uning 13,0 % i sanoat tarmog'iga to'g'ri kelgan[8].

Shuni aytish lozimki, tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat sektori alohida o'rin tutadi. Chunki, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, soliq va bojxona imtiyozlari berish, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hamda tadbirkorlarni huquqiy jihatdan himoya qilish choralari amalga oshiriladi. Shularga muvofiq, tadbirkorlar uchun litsenziya va ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va byurokratik to'siqlarni qisqartirish ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilaydi. Sanoat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish investitsiyalar bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi. Yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va texnologiyalarni yangilash uchun katta hajmda moliyaviy resurslar talab etiladi. Xorijiy investitsiyalar kapital va ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini olib kiradi. Shu bois, investitsiya muhitini yaxshilash tadbirkorlik rivojlanishining muhim omili bo'lib hisoblanadi.





Shu bilan birgalikda, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Bu borada yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini qo'llash mehnat unumdorligini oshiradi hamda mahsulot sifatini yaxshilaydi. Raqamli texnologiyalar korxonalarga xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va bozor talabiga tez moslashish imkonini beradi. Sanoat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishda kooperatsiya va klaster tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Klasterlar xomashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni yagona tizimga birlashtiradi. Bu esa hamkorlik ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Natijada, kichik tadbirkorlik subyektlarining yirik sanoat korxonalari bilan hamkorligini mustahkamlaydi.

Ulardan tashqari, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarish, sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish talab etiladi. Eksportning o'sishi valyuta tushumlarini ko'paytirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini yaratadi. Sanoat sohasida raqobatbardosh tadbirkorlikni shakllantirish uchun yuqori malakali kadrlar zarur.

1-jadval

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari [9]

№	Rivojlantirish yo'nalishlari	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan natijalar
1	Investitsiyalarni jalb qilish	Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni keng jalb etish va imtiyozlar berish	Yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi va mahsulot hajmi oshadi
2	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Zamonaviy uskunalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish	Mehnat unumdorligi va mahsulot sifati oshadi
3	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash	Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari ajratish	Yangi korxonalar tashkil etiladi va bandlik ta'minlanadi
4	Sanoat kooperatsiyasi va klasterlarini rivojlantirish	Korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va raqobatbardoshlik oshadi
5	Eksport faoliyatini kengaytirish	Xalqaro standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga chiqish	Eksport hajmi va valyuta tushumlari ko'payadi
6	Malakali kadrlar tayyorlash	Ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari hamkorligini kuchaytirish	Mutaxassislar malakasi va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi
7	Raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish	Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish	Boshqaruv samaradorligi va ishlab chiqarish tezligi oshadi





Mazkur maqsadda ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, amaliy ta'limni rivojlantirish va mutaxassislarni muntazam qayta tayyorlash muhim hisoblanadi. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega tadbirkorlar innovatsiyalarni tez o'zlashtiradi, bozordagi o'zgarishlarga moslasha oladi va korxonalarning samaradorligini oshiradi. Shularga asosan, sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

Ushbu keltirilgan 1-jadvalga asosan, sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari va kutilayotgan iqtisodiy natijalar aks ettirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish sohaning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Malakali kadrlar tayyorlash esa mazkur jarayonlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishlarni kompleks ravishda amalga oshirish sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratilishi va aholi farovonligini oshirishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni keng jalb qilish, innovatsiyalarni joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish sohaning istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi. Shularga asosan, sanoat sohasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishishga xizmat qiladi.

Shular asosida sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi va ular korxonalarning raqobatbardoshligini, investitsion jozibadorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratildi. Ya'ni, bu yuzasidan quyidagi takliflarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- sanoat korxonalarida zamonaviy uskunalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli kreditlar hamda davlat grantlarini kengaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini oshirish;

- yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklarini taqdim etish hamda ularning faoliyatini kengaytirishga ko'maklashish;





- yirik korxonalar bilan kichik va o'rta biznes subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash hamda mahalliy lashtirish darajasini oshirish hamda ichki bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish;

- korxonalarga xalqaro sifat standartlarini joriy etishda amaliy yordam ko'rsatish hamda eksportni sug'urtalash va logistika xarajatlarini qisman qoplash orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

2. Sharafuddinova M.I., Egamberdiyev Sh. Yengil sanoat tarmoqlarida tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari. // Лучшие интеллектуальные исследования, Часть37, Том4, Январь, 2025. - 200 b.

3. Xonkeldiyeva G.Sh. Sanoat tarmog'ida kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirish yo'llari. // International journal of theoretical and practical research, 2023, Issue2, Volume3. - 38 b.

4. Qurbonov A.B., Maxmutullayeva S.X. Agrar sohada tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali, 2/2022, mart-aprel (№ 00058). - 281 b.

5. Иванова В.О. Статистический обзор и современные проблемы производственного предпринимательства. // Российское предпринимательство, Том19, №10, октябрь, 2018. - с. 3041.

6. Сафиуллин Н.З., Файзрахманов М.Д. Тенденции развития малого предпринимательства в системе экономических интересов: Монография. - Казань: Изд-во Казанск. ун-та, 2007. - с. 39.

7. Иванов И.И. Государственная поддержка предпринимательства: учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2022. - 256 с.

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik(biznes)ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qanday? - T., 2024. 2024-yil 29-avgust.

9. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida mintaqada sanoat klasterlarini rivojlantirish holatining moliyaviy jihatlari. // Nashrlar, 2025, №4(1). - 39-43 b.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**